
KONSTITUTSIYA - XALQIMIZNING HUQUQIY TAFAKKURI, XOHISH-IRODASINING YORQIN TIMSOLI VA AMALIY IFODASI



Konstitutsiya - xalqimizning huquqiy tafakkuri, xohish-irodasining yorqin timsoli va amaliy ifodasi

So'x tumani madaniyat markazi majlislar zalida Konstitutsiyamizning 32-yiliga bag'ishlangan tantanalik tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirda tuman hokimi o'rinbosarlari, sektorlar rahbarlari, korxonatashkilot rahbarlari, ustoz va murabbiylar, keng jamoatchilik ishtirok etishdi.

Tadbir avvalida tuman hokimi o'rinbosari Ilhomjon Abdumajidov so'zga chiqib, Bosh Qomusimizning fuqarolarimiz hayotidagi o'rni va ahamiyati haqida gapirib, huquqiy davlatning belgisi - barcha fuqarolarning irqi, millati, dinidan qat'iy nazar qonun oldidagi tengligida ekanligini ta'kidladi.

So'x tumani prokurori Sadirali Mirzokarimov ham o'z nutqida Konstitutsiya xalqning huquqiy siy mosi, Konstitutsiyamizning benazir huquqiy qadriyat, muqaddas hujjat ekanligi haqida gapirib o'tdi. Konstitutsiyani baxt Qomusi deb bejiz aytilmaydi.

Konstitutsiya bayramiga bag'ishlab kontsert dasturi tuman madaniyat bo'limi xodimlari va 3-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi o'quvchilari tomonidan ishtirokchilarga taqdim etildi. O'quvchi-yoshlar tomonidan sahnada baxtimiz Qomusi she'r va qo'shiqlar ila tarannum etildi.











[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-12-07 13:15:09